

ADABIYOTDA RANGNING BADIY TALQINI

Nigoraxon Xoshimova

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talaba

Toshkent, O‘zbekiston

xoshimovanigora59@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada A.Navoiy va boshqa ijodkorlar asarlari tahlili orqali barcha sohalarda faol qo‘llaniladigan ranglarning badiiy adabiyotda o‘ziga xos poetik mazmuni ifodalashda turli xil motivlar, ramziy obraz va timsollarga aylanib muayyan badiiy mazmuni ifodalashi yoritilgan.

Annotation: In the article, through the analysis of the works of A.Navoi and other artists, it is explained that the colors, which are actively used in all fields, express a specific artistic content by turning into various motives, symbolic images and symbols in the expression of unique poetic content in fiction.

Аннотация: В статье анализируются произведения А.Навои и других художников, которые активно используются во всех сферах художественной литературы, выражают конкретное художественное содержание, превращаясь в различные мотивы, символические образы и символы.

Adabiyot – so‘z orqali jamiyki insoniyatni tarbiyalovchi asosiy vosita. Yaxshi so‘z jon ozig‘i deganlaridek, adabiyot ham halimlik-la jonga ozuqa beradi. Adabiyotning mohiyatini anglab borgan inson undagi ko‘z ilg‘amas mo‘jizadan hayratlanadi. Mana shu mo‘jizani yuzaga chiqishi uchun esa bir qator badiiy unsurlarning ishtiroki zarur bo‘ladi. Har bir ifoda vositasi o‘zi aks ettiradigan ma’no bilan asosiy g‘oyaning yanada boyitilishiga xizmat qiladi. Quyida shunday timsollardan namunalar keltiramiz: qushlar, osmon jismlari, o‘simlik olami, hayvonot olami, rang va boshqalar. Rang badiiy asarlarda inson ruhiyatini, tabiat manzarasini, qahramonlarning tashqi ko‘rinish tasvirini berishda foydalaniladigan asosiy badiiy unsurlardan biridir. Karami keng Tangri DUNYO atalmish maxluqotni yaratganda unga turfa xil rangni tuhfa etib uni jiloli qilib bezadi. Ijodkorlarning ranglar jilosidan zavq olib, ularni asarlarida qo‘llash orqali ramziy ma’no bag‘ishlab poetik obraz va timsollarga aylantirib, kitobxon estetik didini boyitishga imkoniyat yaratishdi. Binobarin, asrlar davomida og‘zaki adabiyot namunalaridayoq ranglardan turdi poeik maqsadlarda unumli foydalanilib kelindi. Keyinchalik yozma adabiyotda ham yanada mukammalroq namoyon bo‘la boshladi. Og‘zaki adabiyotda keng qo‘llanadigan maqollarda ham ranglar ishtirokiga guvoh bo‘lamiz, masalan, “Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqadi” maqoli yomon insonning yomonligi o‘ziga emas, atrofdagilarga ham yuqadi, degan ma’noda kelgan bo‘lib, qozonning qoraligi ichi qora insonga o‘xshatiladi. Shundan kelib chiqib, qora rang yaratilganidan qabihlik,

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

zulmat, yomonlik timsoli sifatida anglashilgan. Xalq og‘zaki ijodining fundamentini tashkil etuvchi ertaklarda ham ranglardan unumli foydalanilgan. Xususan, barchaga tanish bo‘lgan, sevimli ertakka aylangan “Zumrad va Qimmat” ertagini olaylik. O‘zining xushfe’lligi, go‘zal axloqi, mukammal iymoni bilan sehrgar kampirning ham ko‘nglini olgan, uning muhabbatiga sazovor bo‘lgan Zumradga ezgu amallari uchun kampir tomonidan oq sandiq (ba’zi namunalarda qizil) beriladi. Bandalik uchun emas, faqat qorin g‘amini o‘ylash, kun-u tun uxlash, Zumradni va uning otasini haqoratlash bilan o‘tuvchi Qimmatga esa qora sandiq beriladi. Ranglar ertak zaminida yashiringan insonga xos bo‘lgan ijobiylik va salbiylik xususiyatlarni ochib beradi. Ko‘rib o‘tilganidek, oq – ezgulik; qora – yovuzlik, xudbinlik sifatlarining aksi tarzida beriladi. Mumtoz adabiyotimizdagi g‘azallarda ham oshiq iztiroblarini bildirish maqsadida ranglardan foydalaniladi.

Ishq o‘tida Lutfiy yuzi oltinni yoshurdi,

Ey siymbarim, xoh inon, xoh inonma, –

Baytdan ko‘rinib turibdiki, ishq o‘tida Lutfiy yuzi oltinni yashirib yuboradigan darajada sarg‘ayib ketgan. Yor ishqida oshiq yuzi sariq tus olgan. Oshiq dardining og‘irligi yuzidan ma’lum.

“Qarolar falsafasi risolasi” asarining muallifi Anbar Otin risolaning birinchi faslida tunda ko‘rinmaydigan qora buyumlar; “aksar Janub va Sharq xalqlari monandi Arab, Eron, Afg‘on, Seylon, Hind va Kashmir”¹ning qora tanli mehnatkash xalqini tasvirlaydi, ularning yuzlari qora bo‘lsa ham, ko‘ngillari oq tanli insonlarning yuzi kabi oq va ma’rifatli insonlar; kishi husnining asosi ham qora qosh va qora ko‘z ekanligi haqida aytadi. Ikkinchi faslda esa “farqi qarolar”, ya’ni qora sochlilarning boshidagi farq haqida bayon qilinish, kishi bolasini ming mashaqqatlar bilan tarbiyalagan ONA ham farqi qarolardan deyiladi. Uchinchi faslda baxtiqarolar haqida so‘zlanadi. Muallif bu faslda baxtiqarolarning kim ekanini ikki xil fikr bilan izohlaydi. Birinchi qarash egalari – din peshvolari “dunyoda faqat mehnat va mashaqqat bilan kun o‘tkuzub, toat va ibodatni maromiga yetkazmagan va yana pir xizmatini munosib qilib, pir yo‘llanmasini olmaganlarni aytishadi”¹. Ikkinchi qarash Anbar Otinga tegishli: haqiqiy baxtiqarolar “besh kun ko‘rgan umrini rohat bilan o‘tkazish maqsadida ming hiyla va adovatlar bilan ustamonlik qilib, o‘zgarlar mehnati bilan davlat to‘plab, obro‘ va boylik hosil qilib, ommaning nafratiga giriftor”² bo‘lganlar. Bunday insonlarning baxtiqaroligi dunyodan o‘tganlaidan so‘ng ham hech kim ularni yaxshi nom bilan eslamasliklarida ham ko‘rinadi. To‘rtinchi faslda zulmat

¹ Adabiyot. darslik. 11-sinf.I qism. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.:2018. B -195.

² Adabiyot. 11-sinf.I qism. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.:2018. B -195.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

va zulm haqida aytiladi. Zulmat qorong‘lik, kunning shomdan keyingi qismi. Zulm esa adolatsiz hukm qiluvchi hukmdorlarning, aqlsiz va jafokor insonlarning qilgan amallari. Zulm bor hukmronlik qilgan davlatda ham yorug‘lik bo‘lmaydi. Kunlari ham tunde o‘tadi. Risolada qora rangning xususiyatlari yoritilgan.

“Yer yuzida necha xil rang bor? Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Kitob al-Javohir – ma’rifat al-Javohir” asarida 200 dan ortiq ranglarning nomlarini sanab o‘tganlar va bu ranglarning kelib chiqishini ham yozib qoldirganlar. Sharqda olimlar, shoirlar, musavvirlar, naqqoshlar, xattotlar ranglarning yuzdan ortiq turini ajrata olganlar hamda ularning nomlarini, hattoki, har birining ramziy ma’nosini bilganlar. Ulardan bizgacha yetib kelgan ba’zi namunalar bilan tanishib chiqamiz: alvon, rahuvon, bargi karam, binafsha, bug‘doyrang, bo‘z gulgun, jigarrang, zangori, za’faran, zumrad, qahrabo, kulrang, ko‘k, lojuvard, lolarang, malla, moviy, moshrang, nafarmon, oq, pistamag‘iz, pistaqi, pushti, sariq, safsar samorang, sur, feruza, o‘choq kesak, qizil, qirmizi, bayzagul, baqato‘ni...”³ Bu ro‘yxatni davom ettirish ham mumkin. Ko‘pchilik bu ro‘yxatdagi ayrim ranglarning nomlarini xayoliga ham keltirolmasa kerak. Hech bir rang bir-birini takrorlamaydi. Dunyo xalqlarining soni 8 mlrd.ga yetgan bo‘lsa, har kim o‘z rangiga ega. Qora sochli insonlarning soch ranglari bir xil deb o‘ylaysizmi? Yo‘q... Ular o‘zaro farqlanadi. Bu qanday mo‘zija, deb hayron qolasan! Tabiat shu darajada bekamiko‘st yaratilgan. Ranglarning farqlanishiga yana bir isbot “Yaponiyada 40 ga yaqin ko‘z turlari o‘zaro farqlanishini”⁴ keltirsak bo‘ladi. Ranglarning ramziy ma’nolari:

1. Sariq rang – quyosh, hayot, muqaddaslik ramziy ma’nosiga ega. Qadimgi Xitoyliklarda baxt, Yevropada, aksincha, nafratlanish ramziy ma’nosiga ega. Shuningdek, ayriliq ramzi hamdir.

2. Oqrang xosiyatlari. Oq rang – pokizalik, tozalik, yorug‘lik, baxt, beg‘uborlik, soflik, orzu va xayollar tozaligi, ichki go‘zallikka intilishni anglatgan. Azaldan kishilarimiz yangi uyga ko‘chib o‘tishdan oldin uy ustunlariga va shiftiga un sepishgan.⁵ Samarqand viloyati to‘ylaridagi rasm-rusumga ko‘ra, kelinning qo‘lini unga botirishadi. Bu ham momolar aqidasi ko‘ra yangi kelinning kelgusi hayoti shu undek oq, sof, barakali, toza bo‘lsin degan ma’noda o‘tkaziladi.

3. Kulrang xosiyatlari. Kulrang – sovuqni his qilishga chorlashi, asabni davolashi, qon bosimini tushirishni ta’kidlaydilar.⁶

³ Bulatov S. Rang psixologiyasi. Innavatsion rivojlanish nashriyoti. – T.:2020. B – 6

⁴ Bulatov S. Rang psixologiyasi. Innavatsion rivojlanish nashriyoti. – T.:2020. B – 52.

⁵ Bulatov S. Rang psixologiyasi. Innavatsion rivojlanish nashriyoti. – T.:2020. B – 52.

⁶ O‘sha manba, o‘sha bet.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

4. Yashil rang xosiyatlari. Yashil rang – tabiatni, tabiatning uygʻonishi, bahor, ishonch ramzi. koʻpgina xalqlarda navqironlik, umid va shodimonlik timsoli hisoblanadi.⁷ Yashil rang deyishimiz bilan xayolan bahorni eslaymiz. Yashillik yozga ham xos. Ammo bahor va yashillikni bir butun sifatida tasavvur qilish ongimizga singishib ketgan. Bu tabiatning yashil rangga kirishi, tabiatning yangilanishini bildiradi. Demak, yashil rang – yasharish rangi.

5. Qora rang xosiyatlari. Qora rang – motam, cheksizlik, qoʻrquv, oʻlim, noaniqlik ramzi.⁸ Qora rang koʻp oʻrinlarda yovuzlik, zulmat rangi deya hisoblansada, mumtoz adabiyotda yorning goʻzalligi, qahrining qattiqligi ham shu rang bilan ifodalanadi.

6. Qizil rang xosiyatlari. Qizil rang -- gʻalaba, xursandchilik, shodlik, tiriklik, olov va qon ramzi. U iliqlikni his qilishga chorlaydi, kayfiyatni koʻtaradi.⁹ Qizil rang tiriklik ramzi ham sanaladi. 1-sinf ostonasiga qadam qoʻygan bolajonlarga Davlat ramzlari tushuntiriladi. Davlat bayrogʻidagi ranglar sharhi keltirilganida qizil rang – tiriklik ramzi, deb uqtiriladi. Haqiqatan ham tiriklik inson qonida qizil rangda vujudga keltirildi... demak, ushbu rangning bosh maʼnosi tiriklik boʻlgan, keyinchalik yondosh maʼnolari paydo boʻlgan.

7. Moviy rang – tiriklik, mangu osmon, obi hayot, tinchlik, yomon koʻzdan asrash ramzi. Timsollar tilida bu yaxshilik, donishmandlik, halollik, shon-u shuhrat va sadoqatni bildiradi. Binobarin, Amir Temur bayrogʻining rangi ham moviy rangda boʻlgan.¹⁰ Shuningdek, ushbu rangni yoqtiradiganlar tabiatan samimiy, tez kirishuvchan insonlar hisoblanishadi.

Yuqorida 7 ta asosiy rangni keltirib oʻtdik. Qolgan ranglar shu 7 xil rangning aralashuvidan hosil qilinadi. Atrof turfa xil ranglar bilan toʻla. “Baqara” surasi 138-oyatida shunday deyiladi: “Allohdan ham goʻzalroq rang beruvchi bormi?” Taʼlim tizimida maktablarning jihozlanishi va taʼmirlanishida ham ranglar ahamiyatga olinadi. Sinfxonalar och va yorugʻ ranglarda boʻladi. Chunki toʻq ranglar inson salomatligiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Tibbiyot sohasida ham bemorlarni davolashda ranglarga murojaat qilingan oʻrinlar mavjud. Qozogʻiztondagi ruhiy kasallar shifoxonasida ruhiy kasallikni davolashda yangi usul ishlab chiqildi. Bu usulning mohiyati shundaki, bemor oʻz fikr va muammolarini qanday tasavvur qiladi, shuning

⁷ Oʻsha manba, oʻsha bet.

⁸ Bulatov S. Rang psixologiyasi. Innavatsion rivojlanish nashriyoti. – T.:2020. B – 52.

⁹ Oʻsha manba. B -53.

¹⁰ Oʻsha manba. B -55.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

rasmini chizish tavsiya etiladi”.¹¹Ibn Sino ranglarning ruhiyatga ta’siri haqida quyidagicha fikr bildiradi: “Qora, yashil ranglar manfaat. Shu ranglardan topgay basorating quvvat. Oq-u sariq ranglar haddan oshsa agar, bundan sening ko‘zlaringga zarar”.¹²Mir Alisher Navoiy ham o‘z asarlarida ranglardan unumli foydalangan. Xususan, sariq rang to‘g‘risida shunday deydi:

Yara qon da’fi sariq jins qilur, turfa kurung,
Kim bilur tegsa yuzing to’niga bisyor, sarig‘.¹³

Navoiyning yana bir asari borki, ranglar asarda asosiy timsol sanalib, asar g‘oyasini ochib berishda yetakchi ahamiyat kasb etadi. Bu asar “Sab’ai sayyor” dostonidir. Navoiy “Yetti taxt 7 iqlimdan kelgan 7 ta musofirning 7 xil rangdagi saroyda 7 xil hikoyatidan so‘zlar ekan, Bahromning ruhiy holatini ana shu hikoyalar vositasida uqtiradi. Asarda tasvirlangan shoh Bahrom va Dilorom dunyoviy ishq vakillaridir. Shoh Bahromning Diloromga bo‘lgan o‘tli muhabbati, yori visoliga erishgach mamlakat tizginini qo‘ldan boy berishi, xalqning adolatli podshohidan ayrilishi, jilvakor mahbubasi yonida mas’uliyatli vazifadan chetga chiqishi haqida bayon etilgan doston reallikning badiiyatga ko‘chishi haqidadir. Navoiy oshiqlikka mahkum etilgan Bahromning yori ishqida jonini Jabborga berish darajasida tursa ham, shohlarga xos kibr-u takabburlikdan holi emasligini, unda ham kamchiliklar mavjudligini aytib, ularni qoralaydi. Zamona shohi malagining noo‘rin aytilgan gapidan g‘azab otiga minib, uni kimsasi sahroga tashlab ketgach nurafshon umr osmonini zulmat egallaydi. Yorug‘lik qasriga qaro tun tashrif buyuradi. Birinchi iqlim yo‘lidan kelgan musofir qora rangli qasrda Bahromga Farrux va Axiy hikoyatini so‘zlab beradi. Bahromning hajr o‘tida yonayotgani mana shu hikoya bilan boshlanadi.

Qaro rang elga toji yurakdur,
Kim bu rang ichradur mubarakdur.

Qora rang ayriliq, azob, hajr o‘ti ma’nosida keladi. Axiy uchun ham qora rang ayriliq ramzi bo‘lib kelsa, Farrux uchun ustidagi qora uzoq mashaqqat yo‘li, hijron azobi, oxiri va natijasi noma’lum ilohiy istak sifatida namoyon bo‘ladi. Tush motivi orqali ayon qilingan shirin orzu Farrux uchun sitamli tuyilar... Suyuklisi qo‘l yetmas samolarda edi, go‘yo... Ismi jismiga, ruhiga, ma’naviyatiga mos-u xos mos bo‘lgan Axiy Farrux azoblariga chek qo‘yish maqsadida butun xonumoni tugul jufti halolidan ham kechadi. Axiy so‘zining ma’nosiga “Mahbub ul-qulub” asarining 11-tanbehida

¹¹ SBulatov S. Rang psixologiyasi. Innovatsion rivojlanish nashriyoti. – T.:2020. B – 58.

¹² O‘sha manba. B -51.

¹³ O‘sha manba. B -52.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

“Bitta kulchani ikki bo‘lib, yarmini och odamga berganni – saxiy deb, o‘zi yemay hammasini muhtoj odamga berganni – axiy do‘st deb bil’”, deb ta’rif beriladi.

Ko‘rinib turganidek Axiy ismi jismiga mos qahramon. Bu jo‘mardlik sabab qora rangga burkangan Axiyning kelgusi hayoti do‘zax olovidek azobli bo‘lib qoladi. Ammo keyinchalik yoriga visoli qayta nasib etgach, ustidagi qora libosni hamisha kiyib yuradi va qora rang Axiy uchun ayriliq yillaridan chiqarilgan xulosa, shukurqanoat ramziga aylanadi. Shu sabab hamisha yori oldida qora libos kiyishni odat qiladi. S.S.Bulatov “Rang psixologiyasi” asarida Navoiyning ushbu dostonini tahlil qilib, qora rangni yoshlik va baxt ramzi der ekan, insonning yoshligini boshidagi sochlarining qoraligi belgilashini ta’kidlaydi hamda qora rangni muruvvatli, yaxshilik va saodatli hayot ramzi sanaladi¹⁴, degan fikrlarni keltiradi.

Ikkinchi iqlim yo‘lidan kelgan musofir hikoyasini oltinrang, ya’ni sariq rang bilan boshlaydi. Navoiy asarda sariq rang deb keltirmasdan oltinrang deya keltiradi va sariqni ifodalash uchun ham oltinni predmet sifatida keltiradi. Navoiy oltinrang xususida to‘xtalar ekan, voqealar rivojida uni mol-u dunyo, siym-u zar insonga vafo qilmasligini, ularning o‘rni muqim emas, beqarorligini, zindan uqtiradi. Hikoyadagi Zaydi Zahhob ham makr-hiylaning piridir. Xalq tili bilan bunday kimsalarga “Ilonning yog‘ini yalagan”, “Pixini yorgan” iboralari ishlatiladi. Zayd ham o‘z hiylasi bilan qayerdagi qo‘nim topsa, dastlab u yerda insonlarning ko‘zini quvnatadi va ularning nazdida eng qadrlisiga aylanadi. Keyin esa barchani dog‘da qoldirib qanot qoqib uchadi. Bu uchish insonlarga koni zarardir. Zaydi Zahhob - asarda oltinning harakatlanuvchi asliy siymosi. Oltinning harakatlari Zayd orqali namoyish etiladi. Boylikning xususiyatlari Zaydga ko‘chiriladi. Xalqning ham ayni shu rangda libos kiyishi esa jamiki odamizot, uni o‘rab turgan hayot ham aslida foni, boylik deb o‘zni unutish nodonning ishi ekani ta’kidlanadi. Navoiy insonlarning boylikka o‘chligi ustidan yashirin kuladi va achinadi. “...shoh barchaga oltinrang kiyim kiyib yurishni buyurdi. Chunki oltin za’faron kabi elni kuldiradi...zindon ahli ham ozod qilinadi. Qutulib chiqqanlar ham el kiyimiga boqib kula boshladilar...”¹⁵ Timsollar tilida esa sariq rang ko‘pincha orzu-havaslar va bepoyonlik ramzi. Kayfiyatni yaxshilaydigan, ko‘ngillarga taskin beradigan bahava, xosiyatli rang sifatida keladi.¹⁶ Shu bilan birga sariq rang quyosh – iliqlik, tenglik, adolat ramzi hamdir. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig‘” asarida mamlakat shohi Kuntug‘dining adolati va xalqiga maehribonligi quyoshga o‘xshatiladi. Quyosh sariq rangda. Demak. Sariq

¹⁴Bulatov S. Rang psixologiyasi Innativatsion rivojlanish nashriyoti. – T.:2020. B – 66-67.

¹⁵ Navoiy A. Xamsa (nasriy bayon). Yangi asr avlodi. – T.: 2021. B- 317.

¹⁶ Bulatov S. Rang psixologiyasi. Innativatsion rivojlanish nashriyoti. – T.:2020. B – 57.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

rangni iliqlik, tenglik, adolat ma’nosini bildirib kelishi o‘rinli. Balki, Navoiy sariq rang orqali Bahromning adolatli, oqil va mamlakatni aql-u mushohada bilan boshqaruvchi sulton bo‘lganiga ham ishora qilgandir. Ammo Zaydi Zahhob hikoyasi bu qarashni ehtimoldan yiroqlashtiradi. Oltin rangni Navoiy bir ma’noda beqarorlik, foniylilik, vafosizlik ramzi sifatida asarga kiritadi. Hindlarning mashhur eposi “Ramayana”da shafqatsiz Ravananing hurliqo Sitani o‘g‘irlyotganidagi Sitaning holati shunday tasvirlanadi:

Sap-sariq ipak libos ichida nozik badan
Nur sochardi borliqqa yaralgandek tilladan.

Sariq libos olovdek Ravanaga o‘ralmish,
Qora tog‘in quchganday yong‘in, har yon taralmish.¹⁷

Bu o‘rinda sariq rang Sita va Ramaning ayrilig‘iga guvohlik bermoqda. Demakki, ayriliq ma’nosini ifodalamoqda. Navoiy asarida esa sariq rang oltingga qiyosan foniylilik ramzi sifatida qo‘llanadi. S.S.Bulatovning “Rang psixologiyasi”da shunday deyiladi : “Oltinrang Navoiy talqinida tiniqlik, xursandchilik va oliyjanoblik ramzi. Oltin rangining biroz bo‘lsa-da o‘zgarishi uning oliyjanoblik mazmunini buzadi, sharmandalik va nafrat uyg‘otuvchi rangga aylantiradi”¹⁸.

Uchinchi iqlimdan kelgan musofir yashil rang qasrda hikoyasini boshlaydi. Sa’d haqidagi qissani keltirib Navoiy abadiy go‘zal, cheksiz muhabbat, saodatli umrni yashil rang orqali qayta jonlantiradi. Sa’d Misrning badavlat hamda saxovatli xojalaridan birining o‘g‘li. U badavlat bo‘libgina qolmay, ma’naviyati ham to‘kis, har turli bilimlar egasi sanaladi. Tinch va osuda o‘tayotgan hayotida kutilmagan o‘zgarish sodir bo‘lib, ajib mo‘jizalar ko‘rish istagi yuragini gupurtirib yuboradi. Mo‘jizalar yechimi uni go‘zal dildorga yetishtiradi. Qatron ismli dev bilan ham kurashadi. Mehnatning noni shirin bo‘ladi, deganlari kabi Sa’dning barcha mashaqqatlari uning hayoti farovon qiladi. Sa’d barcha sinovlarni o‘z kuchi bilan yengib o‘tadi. Shon-u shavkat, boylik-u mansab bilan emas, mehnat bilan qo‘lga kiritadi. Dilbar bilan o‘tajak umr yangi umr, yashillikka boy bahor kabi edi... turmushini abadiy yashillikka burkadi, unga xazon begona. Sa’d Bahromga ibrat bo‘lishi uchun yaratildi. Bahrom Diloromga qiyinchilik bilan emas, boylik orqali tez va oson erishadi. Diloromdan tez yuz o‘girishiga riyozat chekmagani sabab bo‘lmadimikan? Qiyinchilik bilan erishilgan maqsadning qadri hamisha baland bo‘ladi. Sa’d rivoyati uchun yashil rang tanlanganining sababi, haqiqiy muhabbat

¹⁷ Ramayana (Muhammad Ali tarjimai). G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. – T.: B -62.

¹⁸ Bulatov S. Rang psixologiyasi Innovatsion rivojlanish nashriyoti. – T.:2020. B – 67.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

daraja bilmaydi, asl ishq har kuni qaytadan tug‘iladi, uning bahori doim yashil bo‘ladi, ishqqa tashna qalblarning muhabbati ularni ruhan yetuklikning baland cho‘qqisiga olib chiqadi, degan falsafiy g‘oyani o‘rtaga tashlaydi. Bu yerda Navoiy boqiy ishq haqida saboq beradi. Buning uchun yordamchi obrazlardan Xizr alayhissalomni ham keltiradi. Xizr alayhissalom abadiylik payg‘ambaridir. Xizr payg‘ambar obrazi “Xamsa”ning yana bir dostoni “Farhod va Shirin”da ham keltirilgan. Xizr so‘zining o‘zi ham arabcha bo‘lib “yashil”, “yashil bo‘lish” ma’nolarini anglatadi. Yashil rang so‘fiy ta’limotida ulug‘ ranglardan biri hisoblanadi. Sharq xalqlarining tasavvurida bu rang hayot ramzidir. U samoviy mavjudotlar bilan bog‘lanadi. Yashil rang, shuningdek, o‘tmish bilan kelajak timsoli vazifasini ham bajargan.¹⁹ To‘rtinchi iqlim yo‘lidan kelgan musofir gulgun rangli qasrda hikoyat so‘zlaydi. Gulgunrang, ya’ni binafsharang. Jo‘na va Ma’sudning ajoyib sarguzashtlaridagi asosiy rang – gulgunrang timsollar tilida asablarni yumshatuvchi rang sifatida qaraladi. Shu sabab bo‘lsa kerak, Ma’sud ham, Jo‘na ham og‘ir-vazmin kishilar sifatida tasvirlanadi. Ushbu rang Jo‘naning Ma’sudga qilgan saxovati, Ma’sudning Jo’naga qilgan saxovati, ikkisining o‘rtasidagi hurmat va olijanoblik ramzi demakdir. Jo’nadek saxovatli insondan ham saxovatli inson Ma’sudning boriligi, Allohning sinovi har bir banda: xoh yaxshi, xoh yomon; xoh shoh, xoh gado uchun ham atalganligini tushungan holda iymonni butun qilib matonat bilan sabr qilishi kerakligi Bahromga ulug‘lar nasihati misol keltiriladi. Demak, binafsha rang sokinlik, vazminlik ramzidir. S.S.Bulatovning “Rang psixologiyasi” asarida gulgunrangni qizil rang sifatida tahlil qiladi. Shunday qilib, qizil rang bir tomondan, qonli kurash, iztirob vahalokat ramzini anglatga, boshqa tomondan g‘alaba, xursandchilik, o‘yin-kulgi va telbalik ma’nolarida ham ishlatilishini keltiradi.²⁰ Bizning qizil rang bilan gulgun rang o‘rtasida farq bor. Beshinchi iqlim yo‘lidan kelgan musofir Mehr va Suhayl hikoyasini so‘zlab beradi. Bu hikoya uchun ko‘k rangni hikoya g‘oyasini ifodalovchi rang qilib olinadi. Mehr va Suhayl mehr-sadoqatda, jasurlikda bir-biridan qolishmaydigan, o‘zgalarga ham o‘rnak bo‘ladigan qahramonlardir. Navoiy Mehrni – Oyga, Suhaylni – Quyoshga mengzaydi. Oy-u Quyosh bir-birisiz mavjud bo‘lmaganidek, Mehr va Suhayl ham bir-birisiz mavjud bo‘lolmaydi. To‘y taraddudida safarga chiqqan Suhaylning hiylakor Jobir ilkiga tushishi, birin-ketin Mehr ham, ularning ota-onalari ham Jobir bandasiga aylanadilar. G‘oyibona bir-biriga ko‘ngil qo‘ygan oshiqqlar visolga erishish uchun sadoqat, bardosh bilan talpinadilar. Bu tuyg‘u butun vujudlarini

¹⁹Bulatov S. Rang psixologiyasi Innovatsion rivojlanish nashriyoti. – T.:2020. B – 68.

²⁰ Bulatov S. Rang psixologiyasi. Innovatsion rivojlanish nashriyoti. – T.:2020. B – 69.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

qamrab olib ularga kuch qo‘shadi. Insonning insonga sevgisi ham kamchilikka nasib qiladigan tuyg‘u bo‘lib, uni qadrlash kerak deyiladi. Moviy rang tiriklik, mangu osmon, obihayot, tinchlik, yomon ko‘zdan asrash ramzi. Timsollar tilida bu yaxshilik, donishmandlik, halollik, shon-shuhrat va sadoqatni bildiradi.²¹ Moviy rang Mehr va Suhayl o‘rtasidagi sadoqat va mehrni bildirish bilan birgalikda aza ma’nosini ham bildirgan. Shuningdek, Shayx Najmiddin Kubro 7 xil rang xislatini 7 tushunchaga moslab tushuntirgan: ko‘k - to‘liq ishonch ramzi.²² S.S.Bulatovning “Rang psixologiyasi” asarida shunday keltiriladi: “Dostonda ko‘k yoki moviy rang qandaydir bezovtalik va g‘amgin holatni eslatadi. U kimningdir oramizdan ketganligini anglatadi. Bu rang g‘am va qayg‘u ramzini anglatib, uning shu ma’nodagi ifodasi hozirgi kunimizgacha saqlanib kelgan”.²³

Oltinchi iqlim yo‘lidan kelgan musofirning Muqbil va Mudbir haqidagi hikoyati sandalrangli qasrda bayon qilinadi. Sandalrang sandal daraxtining rangi hisoblanib, izohli lug‘atda shunday ta’riflanadi: sandal yunoncha "sandalos" so‘zidan olingan bo‘lib, nihoyatda xushbo‘y, efir moyiga boy, doimiy yashil ko‘p yillik daraxt. Undan bo‘yoq va xushbo‘y efir moylari olishda foydalaniladi. Navoiyning ushbu nasihati to‘g‘rilik va egrilik xususida bo‘ladi. Muqbil “iqbolli”, “baxtli” degan ma’nolarni anglatib, to‘g‘rilik-u halollik ortidan martabasi yuksalgan qahramon. Mudbir “badbaxt” degan ma’noni bildirib, o‘zining so‘zlari va qirg‘in ishlari sabab taqdiri fojeali yakun topadi. Sandal daraxtining hidi xushbo‘y, o‘zi shifobaxsh, gulidan sharob tayyorlanib, tabobatda foydalanilgan. Sandal rangli qasrda ham hamma narsa sandaldan tayyorlangan bo‘lib, bundan maqsad Bahromning dardiga shifo berish edi. Chashmadagi parizod ishqidan xastalardek bo‘lib qolgan Muqbil o‘shal parivashga yetishdi va ular ham sandaliy qasrda birga baxtli bo‘lishadi. Sandal daraxti to‘g‘riso‘z Muqbilning ham dardiga davo berib, ular farog‘atli umr kechirishadi.

Sandal osoyishi ravon anga,
Atri oning hayoti jon angla.
Sandal isinda tek turib bo‘lmas,
Mushkni kimsa yoshurub bo‘lmas.²⁴

Demak, sandaliy qasr Bahrom dardining darmoni bo‘lib, u shifobaxshlik, huzur-halovat ramzi bo‘lib kelgan.

²¹ S.S.Bulatov. Rang psixologiyasi Innovatsion rivojlanish nashriyoti. – T.:2020. B – 54.

²² O‘sha manba. B -63.

²³ O‘sha manba. B -69.

²⁴ Navoiy A. Xamsa (nasriy bayon). Yangi asr avlodi. – T.: 2021. B- 367.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Yettinchi iqlim yo‘lidan kelgan musofir oq rangli qasrda hikoya so‘zlaydi. Bahromning bu qasrda mehmon bo‘lishi juma kunga to‘g‘ri keladi. Juma kuni muqaddas dinimizda haftaning qolgan kunlariga nisbatan eng xosiyatli kun hisoblanib, shu kuni insonlar ko‘proq ibodat bilan mashg‘ul bo‘lishlari kerak, deyiladi. Payg‘ambarimiz Muhammad solollohu alayhi vassalamning ham sevimli kunlari hisoblanib, Payg‘ambarimiz shu kuni ertaroq turib, g‘usl qilishni buyurganlar. Bu kun ezgulik va yaxshiliklarga boy kundir. Navoiy bu kunni oq rang bilan bog‘laydi. Oq rang – mehr-saxovat, ezgulik, tinchlik, bag‘rikenglik, beg‘uborlik, soflik, musaffolik kabi barcha ijobiy sifatlarni o‘zida jamlagan rangdir. Bahromning qora tunlariga shu qasrda yorug‘lik ato etiladi. Bu qasrda Bahrom mahubasi haqida darak topadi. Musofirning naql qilishicha, noma’lum go‘zal kimnidir qattiq sevgan va undan ayrilgan onidan boshlab, oq rangga burkanib, mahubiga vafodorligini barchaga isbotlaydi. Oq rang poklik ramzi ham bo‘lgani uchun ham Dilorom aynan shu rangdan libos kiyadi. Qabrga ko‘milgan muhabbatini kafanga o‘raydi. Bahrom va Diloromning diydor ko‘rishishlari ham shu hikoyatdan so‘ng sodir bo‘ladi. Mashaqqatli yillardan saboq olmagan Bahrom yana avvalgidek aysh-u ishratga berilib ketadi. Rahm-shafqat tuyg‘usini butkul unutadi. Begunoh hayvonlar dahshatli qirg‘inbarot qilinadi. Tabiatga qilingan yomonliklar, albatta, qaytajak! Bu uning aks ta’siridir. Ona tabiat ham Bahromga javob qaytardi. Biroq bu javob anchayin ayancli bo‘ldi. O‘sha kuni tabiat nola qilib, ko‘z yosh to‘kdi. Butun o‘rmon qonga to‘ldi. Suv o‘rnida qon oqdi. Zabonsiz hayvonlar qoni. Bahrom va uning dilbarini yer yutdi. Fojeali yakun bo‘ldi. Gunohkor inson obrazi – Shoh Bahrom bo‘ldi. Qon – qizil rangda. Qizil rang tiriklik, xavf-xatar ramzi sanaladi. Navoiy asarida qizil rang ayni xavf-xatar, fojea ma’nosida qo‘llangan. E’tibor qilinsa, yetti asosiy rangdan foydalanadi va ularni qahramonlarning ruhiy holatiga moslab, shunday tartibda joylashtiradi: qora – sariq – yashil – gulgunrang - ko‘k – sandalrang – oq. Bahromning ruhiyati va voqealar rivojini ham aynan shu tartibda joylashtiradi. Ularni ma’nosiga ko‘ra joylashtirilsa, quyidagicha bo‘ladi: ayriliq – foniylilik – abadiylik – sokinlik – sadoqat – shifobaxshlik – poklik.

Nafaqat Sharq, G‘arb ilmida ham ranglar bo‘yicha izlanish olib brogan olimlar judayam ko‘p. Masalan, “...mashhur fizik olim Issak Nyuton oq yorug‘likning ko‘p rangli ekanini isbotlagan, ya’ni spektr ranglarini hosil qilgan. Buning uchun Nyuton quyoshning oq yorug‘ligini derazadagi qora pardoning tirqishidan o‘tkazgan va yo‘liga uch qirrali prizma qo‘ygan, natijada har xil ranglardan (qizil, zarg‘aldoq,

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

sariq, yashil, zangori, ko‘k va binafsha) iborat keng yorug‘lik dastasi ko‘ringan’’²⁵. Ranga oid ilmiy izlanish olib brogan olimlardan yana biri I.V.Gyote sanaladi. U o‘zining “Ranglar haqida ta’limot” nomli asarida ranglarni iliq va sovuq tusli ranglarga ajratib, iliq (sarg‘ish qizil) ranglar kishida yuqori kayfiyat tuyg‘usini, sovuq (havorang, yashil) ranglar ma’yuslik, g‘amginlik tuyg‘usini uyg‘otishi haqida yozgan. Umuman olganda, Yevropada oq rang pokizalik, shodiyona, aqllilik, sariq rang esa g‘amginlik yoki shodiyonalik hisoblangan deb ta’rif bergan. Ko‘k quyuc soya kabi jiddiy va yetuklik, qora – alam, qarilik, noma’limlik sifatida qaralgan. Qizil ta’sirchanlik, yoshlik va insoniylik rangidek qabul qilingan’’²⁶ Shuningdek ranglar turli mamlakatlarda turli ma’no bilan beriladi. O‘zbek xalqi uchun motam rang sifatida ko‘k rang qabul qilingan. “...juda ko‘p o‘lkalarda qora rang bilan ifoda etilar ekan, Janubiy Afrikada qizil bilan ifoda etiladi. Shuningdek, Yaponiyada motamni oq chinnigul bilan bog‘laydi’’²⁷

Xulosa qilib aytganda, barcha sohalarda faol qo‘llanadigan rang belgilari adabiyotda ham ijodkorning badiiy maqsadini anglatishga xizmat qiluvchi, yning poetik mazmunini kuchaytiruvchi hamda tagma’no qatlamlarini kitobxonga ramziy obraz va timsollar sifatida anglatishga xizmat qiluvchi poetik vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. S.S.Bulatov. Rang psixologiyasi monografiya. Innavatsion rivojlanish nashriyoti. – Toshkent.:2020. 154-bet.
2. Alisher Navoiy.Xamsa (nasriy bayon). Nashrga tayyorlovchi A.Hojiahmedov. Yangi asr avlodi. – Toshkent.: 2021. 493-bet.
3. Ramayana (Muhammad Ali tarjiması). G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. – Toshkent.: 171-bet.
4. O.H.Husanboyeva. Tasviriy san‘atda rang-tasvir texnika va texnologiyasining ta’lim jarayonida ranglardan foydalanish usullari. Journal of innovatsions in scientific and educational research volume-2,ISSUE-13
5. S.Yanaray. BENİM ADIM KIRMIZI’DA İMGE RENK İLİŞKİSİ. Journal of Literary Criticism. ISSN:2602-4616.Cilt III, Sayı II, Ekim 2019.

²⁵ Husanboyeva. O.H.Tasviriy san‘atda rang-tasvir texnika va texnologiyasining ta’lim jarayonida ranglardan foydalanish usullari. Journal of innovatsions in scientific and educational research volume-2,ISSUE-13

²⁶ O‘sha manba.

²⁷ Yanaray S. BENİM ADIM KIRMIZI’DA İMGE RENK İLİŞKİSİ. Journal of Literary Criticism. ISSN:2602-4616.Cilt III, Sayı II, Ekim 2019.